



## TASHQI QARZLARNI JALB QILISHDA YEBROBONDLARNING AHAMIYATI

**TDIU, MGF-01 guruhi Magistranti**

**Ashurboyev Farrux Alisher o'g'li**

Jahon iqtisodiyotida bugungi kunga kelib aksariyat mamlakatlarda davlat qarzi hajmi va qarz yuki darajasi sezilarli darajada oshayotganligi kuzatilmoqda. Ayniqsa iqtisodiyoti rivojlangan va Evropa ittifoqi davlatlarining so'nggi yillarda jami qarzlari xajmi YaIM ga nisbatan xalqaro tavsiya etiladigan chegaraviy me'yorlardan bir necha foizlarga o'sib borayotganligini qayd etish mumkin. Jaxon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2021 yilda dunyo mamlakatlarining jami davlat qarzi rekord darajaga etib 303 trln. AQSh dollarni yoki jaxon YaIMni 351% ni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich AQSh da 30,1 trln. AQSh dollar yoki YaIMga nisbatan 137% ni, Yaponiyada YaIMga nisbatan 257%ni, Buyuk Britaniyada esa YaIMga nisbatan 96%ni tashkil etgan. Jahon tashqi qarzining 62%i AQSh va Evropa ittifoqi mamlakatlari hissasiga to'g'ri kelsa, Yaponiya va Buyuk Britaniya davlatlarini qo'shib hisoblaganda 77% atrofidagi ulush ushbu davlatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda<sup>38</sup>. Albatta rivojlangan davlatlarda rivojlanayotgan yoki o'tish davridagi mamlakatlarga nisbatan davlat qarzlari belgilangan chegaraviy me'yorlardan yuqori bo'lsada, ularda iqtisodiy o'sish sur'atlari va YaIM xajmining yuqori ekanligi qarzlarni bog'liq xarajatlarni qoplash imkoniyati yuqori hisoblanadi. Bugungi kunda davlat qarzlarini samarali boshqarish, qarzlarni jalb qilishda zamonaviy instrumentlardan foydalanish borasida tadqiqotlarni olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro amaliyotda iqtisodiy-moliyaviy integratsiyalashuv sharoitida jahon moliya bozorida qarz instrumentlari bilan bog'liq operatsiyalarning xajmi yuqori sur'atlar bilan o'sib borishi oxirgi yillarda davlat qarzi xalqaro moliya tashkilotlari shuningdek, moliyaviy ekspert-mutaxassislar va ilmiy jamoatchilik oldida turgan dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Davlat qarzi xalqaro siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanib ulgurdi. Davlat qarzlarini samarali boshqarilishi davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bilan bir qatorda turli iqtisodiy-ijtimoiy inqirozlarni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash lozimki, xalqaro moliya bozoridan qarz jalb qilishda zamonaviy moliyaviy instrumentlarni joriy etish, davlat qarzlarini xalqaro belgilangan me'yorlar chegarasida ta'minlash, davlat qarzlarini iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlarini baholash, davlat qarzlari bilan bog'liq risklarni minimallashtirish asosida iqtisodiy o'sishni ta'minlash va davlat qarzlarini boshqarish mexanizmini takomillashtirish kabi masalalar ilmiy tadqiqotning muhim yo'nalishini tashkil etadi.

Mamlakatimizda iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda davlat tomonidan tashqi va ichki jalb qilinayotgan qarzlarni yuqori ahamiyatga ega. Har qanday iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarning rivojlanish bosqichlarida xorijiy kapitalning ishtiroki va davlatning ichki qarz

<sup>38</sup> <https://www.worldbank.org/en/about/annual-report/world-bank-group-downloads>



instrumentlari muhim o‘rin egallaydi. Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish sharoitida davlat tomonidan jalb qilinayotgan qarzar nafaqat yirik investitsion loyihalar va istiqbolli dasturlarni moliyalashtirish, balki ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish va byudjet defitsitini qoplashda samarali foydalanib kelinmoqda. Bugungi kunga kelib davlat qarzini samarali boshqarish maqsadida davlatning har yili jalb qilinadigan tashqi va ichki qarzlari miqdori qonunchilik bilan qat’iy belgilab qo‘yilmoqda.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot Strategiyasida “davlat qarzini boshqarishda yiliga yangi jalb qilingan tashqi qarz miqdori 4,5 milliard AQSh dollaridan oshib ketmasligini ta’minlash”<sup>39</sup> asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Davlat qarzini samarali boshqarishda nafaqat tashqi manbalar balki ichki imkoniyatlardan ham to‘liq foydalanish lozim. Shuningdek, tashqi qarzar portfelida valyuta birliklarini diversifikatsiya qilish, qarzar hisobiga moliyalashtiriladigan investitsion loyihalarning baholash uslubiyatini takomillashtirish, qarzar bilan bog‘liq risklarni oldindan prognoz qilish va ularni kamaytirishga doir aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish, qarzar bo‘yicha belgilangan chegaraviy me‘yorlar bo‘yicha ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, ichki qarz instrumentlarini amaliyotga keng tadbiiq etish asosida jismoniy shaxslar va norezidentlarni jalb qilish kabi masalalarning hal etilishi va bular bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish tanlangan tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Global xalqaro iqtisodiyotni mustaqil xalqaro moliya sohasisiz, tovar ayirboshlash va ishlab chiqarish omillariga xizmat ko‘rsatish bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan, ularning o‘zaro munosabatlari va o‘zaro munosabatlariga asoslangan holda tasavvur qilish qiyin. XX asrning so‘nggi o‘n yilligida jahon moliyaviy bozori turli mamlakatlarning alohida, ilgari ajratilgan moliyaviy tizimlari o‘rtasida integratsiya jarayonlarining yuqori o‘sishi bilan ajralib turadi. Bu jarayonda asosiy rol ni jahon fond bozori va uning asosiy qismi qimmatli qog‘ozlar bozori egallaydi. Umumjahon iqtisodiy aloqalarining globallasuvi jarayonining ifodasi sifatida integratsiya nafaqat rivojlangan mamlakatlarning qimmatli qog‘ozlar bozorlarini birlashtirish, balki jahon bozorining atmosferasiga kirib borishda ham namoyon bo‘ladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning qimmatli qog‘ozlar bozori, shuningdek, o‘tish davridagi mamlakatlar bozorlari.

Rivojlanayotgan mamlakatlar va ularning subyektlarining milliy moliya bozoridagi manbaalarga nisbatan ko‘proq imtiyozli va arzon moliyalashtirish manbaalariga bo‘lgan qiziqishi ortib bormoqda. Xalqaro moliya bozorida qarz olishning belgilangan shakllari va vositalarini yangi, o‘ziga xos va tizimli jihatdan murakkab navlari bilan almashtirish sharoitida O‘zbekiston Respublikasining tashqi davlat qarzini boshqarish muammolarini yetarli darajada o‘rganish. O‘zbekiston amaliyotida xalqaro yevrobond bozori instrumentlaridan foydalanishning asosiy afzalliklari va kamchiliklarini aniqlashning ahamiyati.

<sup>39</sup> 2022-2026 yillarga Mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Farmoni.



Globalashuv jarayonining hozirgi bosqichida xalqaro kredit kapitallari bozorining o'rni beqiyos. Bu dunyo miqyosida pul mablag'larini yig'ish, qayta taqsimlash va eng oqilona foydalanishni ta'minlaydi. Barchamizga ma'lumki, xalqaro kapitalni samarali investitsiyalashning asosiy shartlaridan biri davlat tomonidan tartibga solishni cheklashning yo'qligi hisoblanadi. Eng kam darajada davlat tomonidan tartibga solinishi va xalqaro kredit kapitallari bozorining eng qaynoq sektori yevro bozoridir, bu esa o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, moliyaviy oqimlarning eng samarali ta'sarruf etish mumkin bo'lgan ob'yektlarga yo'naltirilishini ta'minlaydi. Bu esa o'z o'zidan ma'lumki, mamlakat iqtisodiyotiga kerakli mablag'larni jalb qilishning ayni paytdagi samarali usularidan bo'lib hisoblanadi.